



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI

2023- YIL
YANVAR-APREL



2023- yilning yanvar-aprel oylarida, Toshkent shahrida jami 9 956,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **94,1 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2023- yil 1-may ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



3 425

Bino va inshootlar
qurish

691

Fuqarolik obyektlarini
qurish

3 023

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 79,1 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 48,0 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 76,4 foiz bo'lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 96,4 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 42,3 foiz ulushni va 79,1 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.05.2022- y.	01.05.2023- y.	
Toshkent shahar	9 025	7 139	79,1

tumanlar:

Bektemir	198	178	89,9
Mirzo Ulug'bek	1139	936	82,2
Mirobod	834	626	75,1
Olmazor	758	523	69,0
Sergeli	488	432	88,5
Uchtepa	637	451	70,8
Chilonzor	1160	869	74,9
Shayxontohur	720	543	75,4
Yunusobod	1103	865	78,4
Yakkasaroy	922	724	78,5
Yangihayot	229	235	102,6
Yashnobod	837	757	90,4



2023- yil 1- may holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Mirzo Ulug'bek. (13,1)



Chilonzor. (12,2)




Yunusobod. (12,1)



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Toshkent shahar	9 956,8	1 964,8	7 171,2	820,8
tumanlar:				
Bektemir	286,5	70,5	194,0	22,0
Mirzo Ulug'bek	1506,3	182,2	1200,1	124,0
Mirobod	1164,0	346,5	736,7	80,8
Olmazor	826,1	86,9	664,2	75,0
Sergeli	411,8	34,6	288,3	88,9
Uchtepa	479,2	82,4	348,2	48,6
Chilonzor	849,6	315,7	474,0	59,9
Shayxontohur	716,3	185	468,6	62,7
Yunusobod	1410,7	327,1	1015,8	67,8
Yakkasaroy	1034,8	211,8	769,7	53,3
Yangihayot	212,7	73,1	90,6	49,0
Yashnobod	1058,8	49,0	921,0	88,8




2023- yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 964,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2022-yilning mos davriga nisbatan 54,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 19,7 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-aprel oylari uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.




— Yirik qurilish tashkilotlari

— Kichik va mikrofirmalar

— Norasmiy sektor

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MA'LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mirobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 17,6 % yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 149,4 %) Yunusobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 16,7 % yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 22,7 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 72,0 %i to'g'ri kelib, 2022- yil yanvar-aprel oylari ko'rsatkichiga nisbatan 12,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 111,5 % ni tashkil etgan holda 7 171,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



72,0

2023- yil
yanvar-aprel


59,2

2022- yil
yanvar-aprel



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Mirzo Ulug'bek tumanida (1 200,1 mlrd. so'm yoki ulushi 16,7 %), Yunusobod tumanida 1 015,8 mlrd. so'm yoki ulushi 14,2 %) va Yashnobod tumanida (921,0 mlrd. so'm yoki ulushi 12,8 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **8,3 %**ni tashkil etdi yoki **820,7 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022-yilning mos davriga nisbatan **98,3 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **162,9 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **9 793,9 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda **1,6 %** va **98,4 %** ni tashkil etdi.



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar-aprel oylarida



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **63,6 %** i yoki **6 335,9** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

18,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 040,6** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **18,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **4 118,3** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **72,6 %** ni tashkil etdi.

72,6 %

9,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **514,0** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **9,1 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Toshkent shahar	9 956,8	91,4	100,0
tumanlar:			
Bektemir	286,5	81,0	2,9
Mirzo Ulug‘bek	1506,3	112,0	15,1
Mirobod	1164,0	120,9	11,7
Olmazor	826,1	102,1	8,3
Sergeli	411,8	102,3	4,1
Uchtepa	479,2	70,1	4,8
Chilonzor	849,6	89,6	8,5
Shayxontohur	716,3	96,0	7,2
Yunusobod	1410,7	56,2	14,2
Yakkasaroy	1034,8	120,8	10,4
Yangihayot	212,7	72,8	2,2
Yashnobod	1058,8	108,3	10,6



Ma‘lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 18,3 % ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-apreldagi ko'rsatkichga nisbatan 16,6 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 15,3 % punktga ko'payib, 68,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga ko'paydi, 13,0 % ni tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 22,4 % ni tashkil etdi va 2022- yil yanvar-aprelga nisbatan 20,7 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 77,6 % (20,7 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da




2022- yil
yanvar-aprel



2023- yil
yanvar-aprel

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi va 22,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 78,0 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel

	Qurilish ishlari, mrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Toshkent shahar	9 956,8	6 335,9	1 772,9	1 848,0
tumanlar:				
Bektemir	286,5	178,5	48,6	59,5
Mirzo Ulug'bek	1 506,3	926,0	270,3	310,0
Mirobod	1 164,0	890,0	177,2	96,8
Olmazor	826,1	533,9	105,0	187,2
Sirg'ali	411,8	275,3	71,0	65,5
Uchtepa	479,2	203,8	73,3	202,1
Chilonzor	849,6	638,3	139,6	71,7
Shayxontohur	716,3	408,3	113,7	194,3
Yunusobod	1 410,7	835,2	283,6	291,9
Yakkasaroy	1 034,8	627,9	253,4	153,6
Yangiyot	212,7	142,4	44,9	25,4
Yashnobod	1 058,8	676,3	192,4	190,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-aprel

ulushi % da



■ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari ■ Fuqarolik obyektlarini qurish ■ Bino va inshootlarni qurish



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Mirzo Ulug'bek tumani (1 506,3 mlrd.so'm), Yunusobod tumani 1 410,7 mlrd.so'm), Mirobod tumani (1 164,0 mlrd.so'm), Yashnobod tumani (1 058,8 mlrd.so'm) ga to'g'ri keladi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)